



PAPER

GLOBAL IQTISODIYOTDA EKOTURIZMNING TUTGAN O‘RNI VA O‘ZBEKISTONDA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Choriyeva Nargiza Ibotovna^{1,*}

¹Tarix fanlari O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

*choriyevanargiza257@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada turizm sohasining eng jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri — ekoturizmning nazariy-huquqiy asoslari va iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada ekoturizm tushunchasiga xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan berilgan ta‘riflar, sohaning o‘ziga xos xususiyatlari hamda atrof-muhitni muhofaza qilishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlari va milliy konsepsiyaning ustuvor vazifalari ko‘rib chiqilgan.

Key words: Ekoturizm, barqaror turizm, landshaft, rekreatsiya, ekologik madaniyat, flora va fauna, ekotizim, turizm industriyasi, tabiatni muhofaza qilish.

Bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri — iqtisodiy taraqqiyot bilan tabiat muvozanatini uyg‘un saqlashdir. Bu borada ekoturizm nafaqat sayohat qilish usuli, balki tabiatni asrash va mahalliy aholi turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Global miqyosda turizmning boshqa turlari 5 foiz atrofida o‘sish ko‘rsatayotgan bo‘lsa, ekoturizmning yillik o‘sishi 20-30 foizni tashkil etayotgani sohaning yuqori salohiyatidan dalolat beradi. O‘zbekiston o‘zining noyob tabiiy resurslari va bioxilma-xilligi

bilan ushbu sohani rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar turizmning mazkur tarmog‘ini yangi bosqichga olib chiqish, mavjud tabiiy merosdan oqilona foydalanish va sohada xalqaro standartlarni joriy etish uchun huquqiy zamin yaratmoqda.

Ekoturizm (ekoturizm, yashil turizm) - antropogen ta‘sirga nisbatan ta‘sirlanmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishga qaratilgan barqaror[en] turizmning bir shakli. [1]

Rossiyalik mutaxassislar I. Zorin va V. Kvartalnov

Compiled on: February 2, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

ekoturizm tushunchasini ikki shaklda berishadi: birinchi shakl-ekoturizm “yovvoyi” tabiatdan turistlarning turishi va sayyohat qilishmuhibi sifatida bilvosita foydalanishga, lekin bunda turning barcha komponentlariga ekologik, texnologik texnologiyalarni joriy qilishga yo'naltirilgan turizm. Bu ma'noda ekologiya tur mahsulot atrof muhitga zararni minimallashtiradi hamda tarbiyaviy va rekrasion ahamiyatga ega bo'ladi. Ikkinchi shakli ekoturizm-sayyohat bilan tabiatga ekologik jihatdan yondoshuvining uyg'unlashuvidir deb qaraladi. U yangi landshaftlar bilan tanishuv quvonchi hamda flora va fauna namunalarini o'rganishlazzatini ularni muhofaza qilishimkoniyati bilan uyg'unlashtiradi deb hisoblangan. Ekoturizmning asosiy resurslari sifatida qo'riqlandigan qo'riqxonalar, mahalliy va tabiiy parklar, noyob va oddiy landshaftlar ko'zda tutiladi. “Ekologik turizm” tushunchasining alomatlaridan iloji boricha ko'prog'ini chuqurroq tushunish uchun I. Zorin va V. Kvartalnov o'zaro bog'langan “ekotizim”, “ekologiya”, “Ekologik sayyohat etikasi” kabi tushunchalar sistemasini taklif qilishadi. Ayniqsa, oxirgi tushuncha ahamiyatga molik. Uni jonli tabiatga, borilayotgan landshaftlarga, u yerda yashovchi kishilarga nisbatan hurmat kodeksi, deb sharhlanadi.

“Ekologik turizm” tushunchasini turlicha ta'riflashlarni tahlil qilib uni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, uning quyidagi belgilarini farqlash lozim: -yovvoyi tabiatdan turistlar tashrif buyuradigan muhit sifatida bilvosita foydalanish; -atrof muhitga minimal zarar etkazish; -odamga rekrasion va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish; -yangi landshaftlar bilan tanishish, muhofaza qilishuchun flora va fauna namunalarini o'rganish; -turizmdan tushgan mablag'lardan dunyodagi barcha hududlar flora va faunasini asrash va tiklash uchun foydalanish; -barcha turistlar va xizmat ko'rsatuvchi shaxslarning jonli tabiatga va mahalliy aholiga hurmat kodeksiga rioya qilishlari va boshqalar. [2, B.352]

Yevropa davlatlarida ekoturizmga iqtisodiy soha sifatida qaraladi, chunki chet ellarda jadal sura'tlar bilan rivojlanib borayotgan ekoturizm iqtisodiy foyda keltiruvchi turizmning eng istiqbolli turlaridan biri hisoblanadi. Ekspertlarning ta'kidlashlariga ko'ra, ekoturistlar ko'pincha

o'rta yoki yuqori sarmoyaga ega bo'lgan, har tomonlama ta'minlangan sayohatchilardan iborat turi. Sayyoramizda inson oyog'i yetmagan yovvoyi tabiat juda kam qolganligi sababli, odatda bunday hududlarga sayohat qilish cheklangan, hamda ularga sayyohat qilish ham sezilarli darajada qimmat. Shu sababli, ekoturizmdan tushgan daromad turizmdan tushgan daromadlardan bir necha marotaba ko'pdir. [3, B.40]

Bugungi kunda ekoturizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, ekspertlarning fikricha, 2020-yilgi pandemiyadan oldin turizmning ushbu turi bir kunda 1 milliard dollargacha daromad keltirdi. Hozirda dunyodagi barcha sayyohlarning taxminan uchdan bir qismi ekoturistlardir. Ekoturizmning maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizliginiva barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun tabiatdan turistik yo'nalishda oqilona foydalanishdir. Ekoturizmning maqsadini amalga oshirish uchun «O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi»dagi dasturni keltirish kifoya qiladi. Bu konsepsiyada respublikamizda ekologik turizmni rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish muhimligi alohida qayd qilingan:

ekoturizm industriyasini shakllantirish uchun maxsus qonunlarni ishlab chiqish va ularning huquqiy mexanizmini yaratish;

ekoturistik fan, ta'lim va amaliyotning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

aholining ekologik ongi va madaniyatini ekoturizm orqali o'stirish;

ekoturizm yo'nalishidagi ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yish;

ekoturizm bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash, ekoturistik obyektlarni har tomonlama baholash va ularning kadastrini olib boorish;

ekoturizm monitoringi va istiqbolini olib borishni yo'lga qo'yish;

milliy davlat hududlarini ekoturizm bo'yicha rayonlashtirish;

davlatlarning va xalqaro jamiyatning ekoturizmga oid taktik reja va strategikdasturlar va tadbirlarini ishlab chiqish;

biologik xilma-xillikni saqlash.

Jahonda «2002-yil - ekoturizm yili», deb e'lon qilinishi bu sohaga yanada ko'proq e'tibor

berish va mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yo'lning boshi bo'lgan. Negaki, hozirgi kunda ekologik muammolar yetarli bo'lib, tabiatni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish dunyo hamjamiyati oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishi hozirgi bosqichining xarakterli xususiyatlaridan biri atrof- muhit ifloslanishining texnogen omillarining ortishi bo'lib, bu favqulodda holatlarda birinchi navbatda turistik resurslarning ekologik krizisiga olib keladi. Ekologik vaziyatning zo'rayishi butun dunyoda muammo darajasidagi holatdir. [3, B.53]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016-yil 2-dekabrda PF-486-sonli Farmoni mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda tub burilishni, yangi bosqichning zaminini, turizmga istiqbolli islohotlarning sharoitlarini yaratdi.

Prezident farmonida: "Mamlakatda turizmi jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini ekologik turizmni ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish" belgilangan. Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ekoturizmning o'rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ko'plab qarashlar olg'a surilmoqda.

Xalqaro maqomdagi tashkilot va muassasalarning ma'lumotiga ko'ra, ko'pgina turizm turlari yiliga o'rtacha 5 foizga ortib borayotgan bo'lsa, ekoturizm yiliga o'rtacha 20-30 foizga o'sib bormoqda. Aksariyat mutaxassis va tadqiqotchilarning ilmiy tajriba va xulosalari shuni ko'rsatmoqdaki, ekoturizm turizmning yangi va yosh yo'nalishi bo'lishiga qaramasdan, ommalashuvi boshqa turistik yo'nalishlarga nisbatan 2-3 barobar jadal kechmoqda. [4, B.562]

Ekoturizm iqtisodiy foyda va ekologik barqarorlikni o'zida mujassam etgan zamonaviy strategik yo'nalishdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur soha an'anaviy turizmga

qaraganda bir necha barobar tezroq rivojlanib, tabiatga zarar yetkazmagan holda yuqori daromad keltirish salohiyatiga ega. O'zbekistonning boy tabiiy resurslaridan samarali foydalanish uchun sohaning qonuniy asoslarini mustahkamlash, malakali mutaxassislar tayyorlash va tabiiy hududlarni muhofaza qilishning xalqaro mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

References

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ekologik_turizm
1. Gaybullayeva M. Ekoturizm tushunchasini rivojlanishi va uning yutuqlari. ISSN:3060-4567 Modern education and development. B352
2. Abdurasulov Sh.E. EKOTURIZM IQTISODIY FOYDA KELTIRUVCHI TURIZMNING ENG ISTIQBOLLI TURLARIDAN BIRI SIFATIDA. "Экономика и социум"№5(120)-2 2024 www.iupr.ru, B.40
3. Asadov S. EKOTURIZM VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "GLOBAL ECOLOGICAL PROBLEMS, DESERTIFICATION AND FOOD SECURITY", 2024 B.54
4. Maxsetova M.F. EKOLOGIK TURIZMNING TAVSIFI VA TURLARI. "Экономика и социум"№12(127)-2 2024 www.iupr.ru, B. 562